

MILLATNING G‘URURI VA FAXRINI IFODALOVCHI VOSITA MILLIY TILIMIZDIR

**Rustamov Dilshodbek Abduvaxabovich,
Andijon davlat chet tillari instituti rektori, professor.**

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda obro‘-e‘tibori oshdi. «Davlat tili haqida»gi qonun ona tilimizning go‘zalligi va jozibasini namoyon etdi.

Dunyodagi barcha xalqlar o‘zlarining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog‘liq. ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda har ikki xaftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so‘zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida.

Mazkur raqamlardan ko‘rindiki, har bir millat, yoki xalq o‘z ona tilining rivoji uchun amaliy harakat qilmasa, vaqt o‘tib o‘sha millat o‘z ona tilini yo‘qotishi mumkin.

Mamlakatimizda ona tilimizni boyitish, uning nufuzini oshirish yo‘lida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bu fikrimizning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: «Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin».

1989-yil 21-oktabr... Aynan shu kunda o‘zbek tilining haqiqiy jozibasini anglashni boshlashga imkoniyat berildi. O‘zbek millati uchun dunyoga tuynuk ochildi.

2020-yil 21-oktyabr... Roppa-rosa o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga 31 yil to‘ldi. Xo‘sh, mana shu davr mobaynida o‘zbek tilining haqiqiy jozibasi, uning go‘zalligini dunyoga tanitish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

Ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Jadal rivojlanayotgan zamonamiz chet tilining ta’lim tizimidagi o‘rnini ham sezilarli darajada o‘zgartirmoqdaki, til ta’limida o‘qitishning yangi usul va vositalarning takomillashuvini taqozo etmoqda. Ushbu jarayon chet tiliga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi – uning ustuvorligiga yo‘l ochib bermoqda.

O‘ylaymanki, ushbu konferensiyada til, til ta’limiga doir dolzarb masalalar muhokamaga tortiladi, albatta, ular o‘zining muayyan yechimini topadi. Mamlakatimizda keyingi yillarda o‘z ona tilimizga bo‘lgan e‘tibor oshdi. Xalqaro tashkilotlar bilan turli

shartnoma va bitimlar imzolanmoqda. Shu o‘rinda tilning mazkur soha rivojiga qo‘shadigan hissasi, matnlarning mazmuni, ularda lisoniy imkoniyatlarning voqelanishi masalalarini o‘rganish zaruratga aylanib bormoqda. «Chunki necha asrlar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o‘tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg‘urish – bu millatning o‘zligini anglashi, uning ma’naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro‘-e’tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro‘-e’tiboridir».

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF – 4797-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF – 4958-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF – 5850-son «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbek tili o‘tgan yillar davomida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o‘zaro bog‘laydigan mehr/oqibat tiliga aylandi.

Bundan besh asr muqaddam hazrat Alisher Navoiy:

«Turk nazmida chu men tortib alam, Ayladim ul mamlakatni yakqalam», deb yozgan edi. Ya’ni, ul zot ona tili bayrog‘ini baland ko‘tarib, butun el-ulusni, yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim, deb iftixor qilgan.

Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma’naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oyinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir.

Shu ma’noda dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashni maqsad qilib qo‘ygan har qaysi davlat avvalo, o‘z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi.

Mustaqillik yillarida ona tilimizni tom ma’noda davlat tiliga aylantirish yo‘lida katta chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu o‘rinda bir fikrga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Hozirgi kunda Yer yuzida 7 mingdan ziyod til mavjud bo‘lsa, ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini huquqiy jihatdan muhrlab bergan mazkur qonunning xalqimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.